

**Qo‘qon universiteti  
“Ta’lim kafedra”si o‘qituvchisi, PhD,  
dotsent,  
O‘rinova Feruza O‘ljayevna taqrizi  
ostida**

**Boymirzayeva Shahnozaxon Olimjon qizi  
Qo‘qon universiteti  
“Ta’lim kafedra”si o‘qituvchisi  
Telefon raqami:+998913699297  
Orcid: <https://orcid.org/0009-00017868-7602>  
E-mail: boymirzayevashahnoza98@gmail.com**

---

## **МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА РИОВЛАНТИРУВЧИ МАРКАЗЛАР ФАОЛИЯТИ ОРQАЛИ БОЛАЛАРНИНГ ИНТЕЛЕКТУАЛЬ QОБИЛИYАTLARINI ANIQLASH METODIKASI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida markazlar faoliyatida uni amalga oshirish mexanizmi, tamoyillari hamda shakllari ko’rsatib berilgan, maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish va takomillashtirish dolzarb masalalari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Rivojlantiruvchi markaz, intellektual salohiyat, qobiliyat, mahorat.

---

### **МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ПОСРЕДСТВОМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЦЕНТРОВ РАЗВИТИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

**Абстрактный:** В данной статье показаны механизм, принципы и формы его реализации в деятельности центров в организациях дошкольного образования, а также рассказывается об актуальных вопросах развития и повышения интеллектуального потенциала дошкольников.

**Ключевые слова:** Центр развития, интеллектуальный потенциал, способности, навык.

---

### **THE METHOD OF DETERMINING THE INTELLECTUAL ABILITIES OF CHILDREN THROUGH THE ACTIVITIES OF DEVELOPMENTAL CENTERS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

**Abstract:** This article shows the mechanism, principles and forms of its implementation in the activities of centers in pre-school education organizations, and talks about the current issues of developing and improving the intellectual potential of pre-school students.

**Key words:** Developmental center, intellectual potential, ability, skill.

---

Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning innovatsion fikr va tasavvurlarini samarali shakllantirish, ta’lim mazmuni, shakl va vositalarini optimallashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonlarni tashkil etishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonunida “bolalarga ta’lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarni pedagogik innovatsion klasteri yordamida ularni boshlang’ich maktab ta’limiga sisatli tayyorlash mazmuni va texnologiyasini takomillashtirish dolzarb yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so’nggi yillarda maktabgacha ta’limni rivojlantirishning 2017-yil 30 sentabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha

ta'lrim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to „g „risida”gi farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lrim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to 'g 'risida”gi qarori, 2019 yil 13 maydagi 391-son «Maktabgacha ta'lrim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to 'g 'risida»gi, 2019 yil 11 iyundagi 487-sonli “Maktabgacha ta'lrim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to 'g 'risida” gi qaroriga muvofiq yangi tizim yaratildi. Maktabgacha ta'lrim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagি bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari”, “Ilk qadam” dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha yoshdagи bolalarning ta'lrimva tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish, bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o „rtasida o „zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish, MTTda o 'quv faoliyatini rivojlantiruvchi markazlarda tashkil etish kabi vazifalar belgilangan. Turli guruhlarda markazlar to „plami har xil bo „lishi mumkin, ammo davlat o „quv dasturi guruhdagi beshta asosiy rivojlanish markazlarini tavsiya qiladi: fan va tabiat; til va nutq; syujetlirolli o „yinlar va sahnalashtirish; san'at; qurish, konstruksiyalash va matematika. Guruhda boshqa rivojlanish markazlarini ham tashkil etish mumkin, ularni tashkil etish bolalarning manfaatlariga, guruhning bo „sh makoniga va maktabgacha ta'limgashkilotining moddiy-texnik imkoniyatlariga bog „liq. Bunday markazlar vaqtinchalik yoki faqat bolalar faoliyatining maxsus turlari (qum va suv markazi; pazandachilik markazi; musiqa markazi) uchun tashkil etilishi mumkin. Ta'limmuhitini yaratishda pedagoglar bolalar faol bo „lishi mumkin bo „lgan joylar mavjudligini ta'minlashi kerak. Rivojlanayotgan shaxsni pedagogik jihatdan qo 'llab- quvvatlashning zarurligi haqidagi fikrlar aksariyat pedagog va psixologlarning ishlarida bola qiziqishlarini himoyalashning nazariyamaliy xususiyatlarini ochish tarzida aks ettirilgan. Jumladan, E.Goziev, A.Davletshin, R.Safarova, B.Adizov, I.P. Ivanov, SH.A. Amonashvili, A.V. Mudrik va boshqalar. Ayniqsa, O.S.Gazman, D.Yuldashevlar maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyat doirasida mazkur muammoga alohida e 'tibor qaratganlar. Maktabgacha ta'lrim tashkilotlari faoliyatida bolaning individual muammolarini bevosita va bilvosita hal etishga qaratilgan individual va guruxli ishlar tashkil etilishi, ular muammolarni bartraf qilishga qaratilishi va tezkorlik xarakteriga ega bo 'lishi lozim. Mustaqillik yillarda maktabgacha ta'lrim sohasida ham bir qator o 'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirildi. Mazkur bog 'inda xodim an'anaviy ta'limgan farqli tarzda yangi dasturlar, texnologiyalar amal qila boshladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lrim jarayonida bolaga insonparvarlik tamoyillari asosida yondashish ustuvor o 'rin egallamoqda. Uning asosini bolalarni har tomonlama uyg 'un rivojlantirish, ularning o 'ziga xosligi, shaxsiy sifatlari va intellektual imkoniyatlarini ro 'yobga chiqarish, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilar orasida sub 'ekt-sub 'ekt munosabatlarini qaror toptirish ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lrim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to 'g 'risida”gi qarorida maktabgacha ta'lrim tizimida olib boriladigan ishlar mazmuni aniq belgilab berildi. Unga ko 'ra maktabgacha ta'lrim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, MTTlarda bolalarni rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish1 kabi vazifalar belgilab qo'yildi. Qaror bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lrim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ham tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida maktabgacha yoshdagи bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi. MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o 'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishslash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatları, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'limga rivojlantiruvchi markazlar ta'limga rivojlantiruvchi, o 'qitish, rag 'batlantiruvchi, uyushgan , kommunikativ kabi o 'z tizimini yuksaltiruvchi funksiyalarni bajarishi kerak. Bu funksiyalar eng muhim bola mustaqilligini, erkin fikrlash, bolalar va kattalar orasidagi o 'zaro munosabatlar jarayonini rivojlantirish ustida ishslashni talab

etadi. Bunday markazlarda markazlarning o'zaro dizayni,estetikasi, bolalar uchun jozibali ,qiziqish uyg'otadigan bo'lishi kerak .Jihozlari ham bola yoshiga mos,xavfsiz,didaktik talablarga mos holda tashkil etilishi lozim. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xohish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni – o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin. Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingen kichik naqia ko'rinishlarini o'ynashga xohish-istik uyg'otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo'lishi zarur. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin. Bolalarning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari narsalar bilan mashg'ul bo'lislari uchun foydalaniladi. Markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyat, so'z orqali va so'zsiz muloqot, umumiy va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Pedagoglarning vazifasi – bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o'z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan hamda ularni kuzatishdan iborat. Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishchlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak. Gurux xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallarlar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'zin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallarlar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak. Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallarlar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o'zgarishi kerak. Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamaslik zarur. Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o'z o'zi bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlashi kerak. Tematik rejalashtirishga ko'ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallarlar va o'zin uskunalar bilan ta'minlash ustida o'ylashi va to'ldirishi kerak. Markazlarni bolalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan to'ldirish mumkin. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallarlar tayyorlanadi va jihozlanadi. Qurilish, konstrukturlik va matematika markazi:har xil qurilish to'plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstrukturlar, o'ynash uchun didaktik o'yinlar va boshlang'ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o'quv materiallarlar. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi: teatrning barcha turlari uchun atributlar va o'zin materiallarlar, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatizatsiya o'yinlari, shlyapalar - maskalar, o'zin to'plamlari va burchaklarda o'ynash uchun o'yinchoqlar - masalan «Sartarosh», «Kasalxona» va "Do'kon" o'yinlari atrebutlari. Til va nutq markazi: didaktik o'yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallarlar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko'ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albbomlar, topishmoqlar albbomlari, magnit harflar to'plami, "Rasmi Alifbo" kubiklari. Ilm, fan va tabiat markazi: atrof-muhit madaniyati bo'yicha didaktik materiallarlar, «Tabiat va odam» rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo'yicha maketlar, tabiiy materiallarning xususiyatlarini o'rganish uchun materiallarlar, to'plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to'plamlari, o'ynash uchun o'zin mavzular to'plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar. San'at markazi: tasviriy faoliyat zarur jixozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan albbomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san'at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O'zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albbomlari.

Markazlardagi bolalarning o‘yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi didaktik materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta’minlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, echimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o‘z maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etadi, agar shunday bo‘lsa, muammolar pedagogning va bolalarning va uning ota-onalarining shaxsiy ishi bilan belgilanadi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o‘ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning histuyg‘ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanayotgan ta’lim asosida yotadi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko‘ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkonini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko‘nikmalari va qibiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqilizlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir. Rivojlantirish markazlarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o‘yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, video namoyishlari, ijodiy faoliyat, tajribalardan foydalanib faoliyat olib borish ta’limsamaradorligiga ijobiy ta’sir qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni intellektual rivojlantirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishda qulay imkoniyatlar yarata oladigan, bogcha-maktab kabi yangi tipdagi ta’lim tashkilotlari vujudga keldi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oliy ma’lumotli tarbiyachilar safi kengaydi. O‘zbekistan Respublikasining 2020 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida maktabgacha ta’limga alohida e’tibor qaratish lozimligi uqtirildi. Jumladan: “Maktabgacha ta’lim bola intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi”. Maktabgacha ta’lim jarayoni bolalarni axloqiy, intellektual, jismoniy rivojlantirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarga ega. Maktabgacha ta’lim jarayonida uzviylikni ta’minalash uchun D.B.Elkonin, V.V.Davidov va L.V.Zankovlar kontseptsiyasiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunga kelib maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali intellektual rivojlantirish muammosi dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qatnovchi bolalar soni qator sabablarga ko‘ra yildan-yilga pasaymoqda. 1992 yildan bugungi kunga qadar mazkur ko‘rsatkich 55% ga qisqargan. Bu esa boshlang‘ich sinflarda ularni o‘qitish va intellektual rivojlantirish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Oilada bolalarga beriladigan ta’lim- tarbiya esa, maktabgacha ta’lim jarayonida amalga oshirilayotgan pedagogik jarayon natijasiga tenglashmayapti. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berish asosida ularni intellektual rivojlantirish uchun ta’lim jarayoni sub’ekt sifatida ularning faollikni shakllantirishga alohida e’tibor berilishi lozim. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarni qo‘llab-quvvatlash orqali ularni o‘z o‘zini rivojlantirish va muntazam takomillashtirishga intiluvchi, ta’lim sub’ekti sifatida shakllantirish uchun qulay shart- sharoitlar yaratish zarur. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish talab etilmoqda. O‘z navbatida pedagog kadrlarni ham mazkur metodika asosida ishlashga tayyorlash zaruriyati mavjud.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. F.R. Qodirova, N.M. Qayumova, M.N. Agzamova “Maktabgacha

pedagogika” Toshkent-2019 –yil,672 b

2. N.T.Tosheva “Maktabgacha ta‘lim –tarbiyani tashkil etish” Buxoro-2022-yil,344
3. Sh.O.Boymirzayeva (2024) DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF THE FUTURE EDUCATOR IN THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences 20-22
4. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon

kizi. Professional Competence of a Teacher as a Factor of Increasing the Quality of Preschool Education. International Journal of Culture and Modernity. ISSN

2697-2131, Volume 18/July-2022, 95-99 bet.

5. I.S.Soliyev, Sh.O.Boymirzayeva. TARBIYACHILAR KASBIY

KOMPITENTLIGINI OSHIRISH, MAK TABGACHA VA BOSHLANG,,ICH

TA“LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, YECHIMLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI,364-365 bet.

6. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon kizi.

Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative

Activity of A Future Kindergartener. Journal of Pedagogical Inventions and Practices. ISSN NO: 2770-2367 <https://zienjournals.com> Date of Publication:

10-04-2023. 108-112 bet.

7. 1.Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, & Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon kizi. (2023). Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative Activity of A Future Kindergartener. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 19, 108–112. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3709>

8. 2.Soliyev, I., & Boymirzayeva, S. (2023). MAK TABGACHA TA‘LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *Наука и инновация*, 1(6), 128-129.